

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**Tuychiev L. N., Shukurov B. V., Rahmatullaeva Sh. B.,  
Ergashev B. M., Sadikov X. A.**

**ISITMA BILAN KEHADIGAN KASALLIKLARNI  
ERTA VA QIYOSIY TASHXISI**

**(O'quv-uslubiy qo'llanma)**

**Toshkent 2021**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

**"TASDIQLAYMAN"**

O'z R SSV Fan va ta'lim  
bosh boshqarmasi boshlig'i

69 O.S. Ismailov

2021 y "22" fevral

№ 2 bayonoma



**"KELISHILDI"**

O'z R SSVning Tibbiy  
ta'limni rivojlantirish  
markazi direktori


2021 N.R. Yangieva

№ 2 bayonoma



**ISITMA BILAN KEHADIGAN KASALLIKLARNING  
ERTA VA QIYOSIY TASHXISI**

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari V-VI kurs talabalari  
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



Toshkent – 2021

To'ychiev L. N., Shukurov B. V., Rahmatullaeva Sh. B., Ergashev B. M., Sadikov X. A.//  
«Sariqlik sindromi bilan kechadigan kasalliklarning erta va qiyosiy tashxisi»: O'quv-uslubiy  
qo'llanma / TTA nashriyot va muharririyat bo'limi, 2021– Toshkent – 44 b.

#### **Tuzuvchilar:**

To'ychiev Laziz Nodirovich	Tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent Tibbiyot akademiyasining yukumli va bolalar yukumli kasalliklar kafedrasini mudiri.
Shukurov Baxtiyor Vakilovich	Tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent Tibbiyot akademiyasining yukumli va bolalar yukumli kasalliklar kafedrasini dosenti
Rahmatullaeva Shaxnoza Bahodirovna	Tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent Tibbiyot akademiyasining yukumli va bolalar yukumli kasalliklar kafedrasini dosenti
Ergashev Boxodir Maxmudovich	Toshkent Tibbiyot akademiyasining yukumli va bolalar yukumli kasalliklar kafedrasini assistenti
Sadikov Xumayun Mirzo Abdullaevich	Toshkent Tibbiyot akademiyasining yukumli va bolalar yukumli kasalliklar kafedrasini assistenti

#### **Resenzentlar:**

Shadjalilova M.S.	Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar kafedrasini dosenti, tibbiyot fanlari doktori, dosent
Abidov A.B.	TTA Yukumli va bolalar yukumli kasalliklar kafedrasini dosenti, t.f.n.

O'quv-uslubiy qo'llanma 2020 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da Toshkent Tibbiyot akademiyasining yukumli kasalliklar kafedra majlisida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. " \_\_-son Bayonnoma.

Kafedra mudiri, t.f.d.

Tuychiev L.N.

O'quv-uslubiy qo'llanma 2020 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da Toshkent Tibbiyot akademiyasining muammoli komissiyasi va SMK majlisida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. " \_\_-son Bayonnoma.

SMK raisi, t.f.d., professor

Boymurodov Sh.A.

O'quv-uslubiy qo'llanma 2020 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da Toshkent Tibbiyot akademiyasining Ilmiy kengash majlisida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. " \_\_-son Bayonnoma.

Ilmiy kotib: t.f.d.

Ismailova G.A.

© To'ychiev L. N., Shukurov B. V., Rahmatullaeva Sh. B., Ergashev B. M., Sadikov X. A.

© Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2021

**Maqsad** - yuqumli kasalliklar etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezini, asosiy klinik simptomlari, tashhisi va davolash, shuningdek, profilaktika asoslarini o'rgatishga qaratilgan. Rasional laborator va instrumental tekshiruv usullaridan foydalangan holda klinik tashhis qo'yish, qiyosiy tashhislashga integral yondashishni rivojlantirish.

**Vazifalar:**

1. Istma sindromi bilan kechadigan kasalliklar haqida bilimlarni o'rgatish.
2. Istma sindromi bilan kechadigan kasalliklaridagi asosiy klinik belgilarni o'rgatish.
3. Istma sindromi bilan kechadigan kasalliklarda qiyosiy tashhis o'tkazishni o'rgatish.

**1.2. Yuqumli kasalliklar fanida bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashga bo'lgan talablar**

*Talaba bilishi kerak:*

O'qitish natijasida talaba bilishi shart:

A) keng tarqalgan istma sindromi bilan kechadigan kasalliklar sindromlarning integral tashxisini.

B) Istma sindromi bilan kechadigan kasalliklarning laborator tashxisini.

V) Yuqumli kasalliklarni o'rganish uslubi.

*Talaba bajara olishi kerak:*

A) anamnez yig'ish va bemor ko'rigini o'tkazish.

B) erta va qiyosiy tashhislash asosida dastlabki tashhisi shakllantirish.

V) maqsadga yo'naltirilgan tekshiruvlarni tavsiya etish.

G) laborator, instrumental tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish.

D) yakuniy tashhis qo'yishda klinik mantiqqa ega bo'lish, og'irlik darajasini va oqibatini baholash.

Ye) pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotning bir qismini mustaqil olib borishlariga o'rgatish

*Talaba quyidagi amaliy ko'nikmalarni egallashi kerak:*

1. Kasallik anamnezini yig'ishni;
2. Bemorlarni klinik tekshirishni;
3. O'rganilayotgan kasalliklarning asosiy klinik, laborator va instrumental mezonlarini aniqlash va o'rganishni;
4. Davolash asoslarini;
5. Profilaktik tadbirlar rejasini ishlab chiqishni bilishi kerak.

Tana haroratining ko'tarilishi (isitma) ko'pgina yuqumli kasalliklarning tez va o'ziga xos namoyon bo'ladigan klinik belgilaridan biri hisoblanadi.

Ko'pincha, amaliyotchi shifokorlar, bemorda yuqori tana harorati aniqlangan zahoti unda yuqumli kasallikni taxmin qiladilar. Biroq deyarli barcha yuqumli kasalliklarda yuz berishi mumkin bo'lgan isitmaning keng tarqalishiga ushbu sindromni taqqoslash tashxisi qiyinchiliklarga sabab bo'ladi, buning ustiga tana haroratining ko'tarilishi kasallikning boshqa klinik belgilari, shu jumladan

isitmaning qiyosiy tashxislash ahamiyatiga ega ko'plab ko'rsatkichlari (davomiyligi, harorat egri chizig'i xususiyati va h.k.) hali namoyon bo'lmagan bir paytdagi erta belgilaridan biri hisoblanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, tana haroratining ko'tarilish holati xar doim ham varaja (qaltirash) hisoblanavermaydi, ko'pgina yuqumli kasalliklar uchun esa aynan isitmalash xosdir. Isitmalash deganda, tana haroratining termoregulyator ko'tarilishi tushunilib, u organizmning kasallikka tartibli va o'zaro muvofiqlashgan javobini o'z ichiga oladi, ya'ni organizmning o'zi tana haroratini me'yordan yuqori darajaga ko'taradi [M.I. Lourin, 1985].

Tana haroratining ko'tarilishi nafaqat boshqaruv jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi, balki issiqlik ishlab chiqarish va issiqlik uzatish o'rtasidagi nomutannosiblik natijasida ham paydo bo'lishi mumkin, bu esa organizmning tana haroratini me'yoriy darajada ushlab turishni ta'minlashga qaramay, tana haroratining ko'tarilishiga olib keladi. Bunday tana haroratining ko'tarilishi gipertermiya deb ataladi (ushbu atama ba'zan adabiyotda uchraydigan isitmalash sinonimi sifatida baholanmasligi kerak).

Gipertermiya ayrim kasalliklarda va fiziologik xolatlarda (oftob urishi, gipertireoz, atropin bilan zaharlanish va h.k. holatlarda) kuzatiladi.

Nihoyat, tana haroratining ko'tarilishiga me'yoriy faollik yoki fiziologik jarayonlar sabab bo'lishi mumkin. Tana haroratining biroz ko'tarilishi sirkad ritmlar (sutkalik tebranishlar) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Sog'lom odamda tana harorati, odatda, soat 18:00 ga kelib maksimal darajaga yetadi va tungi soat 03:00 da minimal bo'ladi. Tana haroratining biroz ko'tarilishi to'yib ovqatlanigandan so'ng va ko'proq ko'tarilishi – og'ir va uzoq vaqtli jismoniy zo'riqishdan so'ng yuz berishi mumkin. Shunday qilib, biz tana harorati ko'tarilishining turli mexanizmlari xususida so'z yuritishimiz mumkin.

Gipertermiya	Isitmalash	Me'yoriy tebranishlar
Oftob urish	Yuqumli kasalliklar	Ortiqcha jismoniy zo'riqish
Gipertireoz	noinfekcion kasalliklar	Ovqatlanishdan so'ng
Ayrim zaharli moddalar bilan zaharlanish		Sirkad ritmlar


Ko'pgina yuqumli kasalliklar uchun isitmalash xosdir, biroq isitma boshqa kasalliklarda (parchalanuvchi o'ssmalar, o'tkir gemoliz, biriktiruvchi to'qima kasalliklari va h.k.) ham uchrashi mumkin, ayrim yuqumli kasalliklar (vabo, botulizm) esa isitmasiz ham kechishi mumkin. Buning barchasi qiyosiy tashxislash o'tkazilishida e'tiborga olinishi kerak. Isitma sindromi ko'p uchrab turganligi sababli ko'plab kasalliklarda nafaqat isitma mavjudligining (mavjud emasligi) o'zi, balki uning bir qator o'ziga xos xususiyatlari (boshlanishi, ifodalanganlik darajasi, harorat

egri chizig'i turi, a'zolarning shikastlanish belgilari paydo bo'lgan muddatlar va h.k.) qiyosiy tashxislash ahamiyatiga ega bo'ladi. Kasallik boshlanishida, harorat egri chizig'i xususiyati to'g'risida, uning davom etish muddatlari to'g'risida ma'lumotlar bo'lmagan holatda, isitmalash sindromini qiyosiy tashxislash ahamiyati kasallikning ko'plab o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadigan keyingi davrlariga nisbatan kamroq bo'ladi. Tana haroratining ko'tarilishi tez (o'tkir darajali) bo'lishi mumkin, bunda bemor kasallik (ornitoz, leptospiroz va b.) boshlangan soatni ham aniq aytishi mumkin. Tana harorati tez ko'tarilgan holda odatda bemorda o'qtin-o'qtin qaltirashdan juda kuchli qaltirashgacha (bezugak va b. kasalliklarda) turli darajada ifodalangan titroq (et uvushishi) qayd etiladi. Boshqa kasalliklarda (ich terlama, paratif yuqumli kasalliklarida) isitma asta-sekin ko'tarilib boradi.


Tana harorati ko'tarilishi darajasiga ko'ra, subfebril ( $37-37,9^{\circ}\text{S}$ ), febril ( $38-39,9^{\circ}\text{S}$ ), yuqori isitma ( $40-40,9^{\circ}\text{S}$ ) hamda giperpireksiya ( $41^{\circ}\text{S}$  va undan yuqori) turlarga bo'linadi. Tana haroratining ko'tarilish patogenezi e'tiborga olingan holda, subfebrilitet ham isitma sifatida baholanishi kerak.

Harorat egri chizig'i xususiyatlari. Isitma paydo bo'lish sur'ati ustidan kuzatuv uning qiyosiy tashxislash ahamiyatini oshiradi. Ayrim yuqumli kasalliklarda harorat egri chizig'i shunchalik o'ziga xos bo'ladiki, ushbu kasalliklar (bezugak, qaytalama terlama) tashxisini belgilab beradi. Harorat egri chizig'ining qiyosiy tashxislash ahamiyatiga ega bir necha turlari farqlanadi.


*Doimiy istma* (febris continue). Tana harorati doimiy yuqori bo'lib sutkalik tebranish  $1^{\circ}\text{S}$  dan oshmaydi. Bunday egri chiziq gripp, tif-paratif kasalliklarida, Ku-isitmasida, toshmal tif va boshqa kasalliklarda kuzatiladi.




*Bo'shashtiradigan* (remittirlovchi) istma (f. remittens). Bunda tana haroratining sutkalik tebranishi  $1^{\circ}\text{S}$  dan yuqori, biroq  $2^{\circ}\text{S}$  dan oshmagan xolda bo'ladi (ornitoz, brusellez va boshqa kasalliklarda).




*Vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadigan (f. intermittens). Yuqori yoki juda yuqori va me'yoriy daraja bilan tartibli almashinib turishi. Bunda sutkalik tebranish 3-4°S bo'ladi (bezgak, smv va b.).*



*Qaytalama istma (f. recurrens). Bir necha kun davomida yuqori isitma davrining me'yoriy davri bilan tartibli almashinib turishi bilan xususiyatlanadi (qaytalama tif va b.).*



*To'liqinsimon istma (fundulans). Tana haroratining yuqori raqamlargacha asta-sekin ko'tarilishi, so'ngra subfebril, ba'zan esa me'yoriy ko'rsatkichgacha asta-sekin pasayishi bilan ajralib turadi; 2-3 haftadan so'ng sikl takrorlanadi (visseral leyshmanioz, brusellyoz, limfogranulematoz).*



*Gektik* (toliqtiruvchi) istma (f. hectica) – me'yoriy yoki subme'yoriy tana haroratigacha pasayib boradigan juda yuqori sutkalik tebranishlar (3-5°S) bilan uzoq vaqt davom etadigan isitma (sepsis, tarqalgan virusli infeksiyalar va b.).

Noto'g'ri (atipik) istma (f. irregularis). Tana haroratining nomuayyan muddatli turli darajali ko'tarilishini o'z ichiga olgan katta sutkalik tebranish darajalari bilan xususiyatlanadi, gektik istmaga yaqin turadi (sepsis, sil va b.).

Almashgan istma (f. inversa) ertalabki tana haroratining kechki tana haroratidan yuqori ekanligi bilan ajralib turadi.

Har bir yuqumli kasallik harorat egri chizig'ining turli variantlariga ega bo'lishi mumkin, ular orasida u yoxud bu nozologik shaklga xos bo'lgan eng ko'p uchraydigan variantlari bor. Ba'zida ular yetarli darajada ishonch bilan tashxis ko'yish imkonini ham beradi (uch kunlik bezgak va b.).

Isitmaning davomiyligi qiyosiy tashxislash uchun muhim ahamiyatga ega. Bir qator kasalliklar tana haroratining qisqa vaqtli ko'tarilishi bilan xususiyatlanadi (gerpangina, o'tkir ichburug' (dizenteriya) va b.). Agar, masalan, isitma 5 kundan ko'proq davom etsa, bu gripp kabi tez-tez uchraydigan kasalliklar va boshqa o'tkir nafas yo'llari virusli kasalliklarini, anginani inkor qilish imkonini beradi (albatta, agar asoratlar bo'lmasa).

Aksincha, tana haroratining uzoq vaqtli (bir oydan ko'proq muddat) ko'tarilishi nisbatan kam hollarda va faqat ayrim uzoqqa cho'ziladigan yoki surunkali kechishga moyil bo'lgan yuqumli kasalliklarda kuzatiladi (brusellyoz, toksoplazmoz, visceral leyshmanioz, sil kasalligi va b.). Shunday qilib, isitmaning ifodalanish darajasi, harorat egri chizig'i xususiyati va isitmaning davomiyligi yuqumli kasalliklarning qiyosiy tashxislashda boshqa ko'rsatkichlar hisobga olingan holda amalga oshiriladigan alohida guruhlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Jumladan, isitma boshlanishi va a'zolar zararlanishlari paydo bo'lishi o'rtasidagi oraliq vaqt qiyosiy tashxislash uchun ahamiyatga ega. Ayrim yuqumli kasalliklarda (gerpes infeksiyasi, skarlatina, qizilcha, meningokokkemiya va b.) ushbu oraliq vaqt 24 soatdan kamroq bo'ladi, boshqa yuqumli kasalliklarda (qizamiq, suvchechak va b.) u 1 sutkadan 3 sutkagacha davom etadi va nihoyat, bir qator kasalliklarda (ich terlama, virusli gepatit va b.) oraliq vaqt 3 sutkadan ko'proq davrni tashkil etadi.



Yuqumli kasallik xususiyati va kasallanish darajasi ham ahamiyatga ega. Masalan, gripp epidemiyasi vaqtida har qanday tana haroratining ko'tarilishi, eng avvalo, gripp ehtimoli to'g'risida o'ylashga majbur qiladi. Qizamiq, skarlatina, suvchechak, qizilcha va boshqa havo-tomchi infeksiyalari bo'lgan bemorlar bilan aloqaga ko'rsatma muhimdir. Ushbu ma'lumotlar kasallikning yashirin (inkubasiya) davri muddatlari bilan solishtiriladi. Boshqa epidemiologik ma'lumotlar (bezgak bo'yicha epidemik hududda bo'lish va b.) ham ahamiyatga egadir.

Etiotrop davolash ta'sirida harorat egri chizig'i o'zgarishi qiyosiy tashxislash uchun ahamiyatga ega (bezgak xurujlari delagil bilan bartaraf etiladi, qaytalama terlamada tetrasiklinlar qabul qilinganidan so'ng tana harorati tezda me'yoriga keladi va h.k.). Shunday qilib, isitma deyarli barcha yuqumli kasalliklarda uchrashiga qaramay, ushbu sindromning bir qator o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ulardan qiyosiy tashxislash uchun foydalanish mumkin.

Gipertermiya. Yuqori havo haroratiga egaxonada yoki ochiq havoda yosh vaqtida ishlagan vaqtda oddiy gipertermiya rivojlanishi mumkin bo'lib, bunda faqat yuqori tana harorati qayd etiladi. Bunday bemorlarda kasallikning aynan xos klinik belgilari bo'lmaydi.

Klinik belgilardan darmon qurishi tana haroratining o'rtacha ko'tarilishidan tashqari, madorsizlik, bosh og'rish, bosh aylanishi, chanqash, yuzidan qon qochishi (rangparlik) kuzatiladi; behushlik holati bo'lishi mumkin. Bemor ish faoliyatini davom ettirish holatida bo'lmaydi.

Oftob urishi isitma kasalligining eng og'ir shaklidan xisoblanadi. Bu tana harorati haddan tashqari ko'tarilganda paydo bo'ladigan murakkab sindrom [M.I. Lourin, 1985]. Bunda organizmning ko'plab tizimlari, shu jumladan markaziy nerv tizimida termik shikastlanish rivojlanadi. Juda yuqori tana harorati issiqlik ishlab chiqarilishi va issiqlik uzatilishi o'rtasidagi nomutannossiblik bilan bog'liqdir. Issiqlik ishlab chiqarilishi oshishidan (jismoniy ish va b.) tashqari yuqori havo harorati hisobiga kuchaytirilgan issiqlik tushishi, shuningdek radiasion issiqlik tushishi ahamiyatga ega. Tashqi muhitning yuqori harorati issiqlik uzatilishiga to'sqinlik qiladi. Terlashning to'xtashi oftob urishining o'ziga xos belgisi hisoblanadi.

Oftob urish o'tkir boshlanadi. Ushbu holat bemorda atrof-muhit harorati  $40^{\circ}\text{S}$  va undan yuqori bo'lgan vaqtda, agar u qizg'in issiqlik ta'siri sharoitlarida, ayniqsa, jismoniy zo'riqishlar bo'lgan holatda to'satdan hushidan ketisa, taxmin qilinishi mumkin. Oftob urishda tana harorati  $39,4^{\circ}\text{S}$  dan  $42,2^{\circ}\text{S}$  gacha o'zgarib turishi mumkin. Markaziy nerv tizimi o'zgarishlarining ifodalanganlik darajasi kasallikning boshlang'ich bosqichlarida yengil asabiylashish va fikrlashda chalkashishlardan, kasallikning avj olgan davrida og'ir behushlik holatigacha o'zgarib turadi. Ko'pincha tirishishlar kuzatiladi. Bosh miya shishi klinik belgilari paydo bo'lishi mumkin. Teri quruq, qizib ketadi. Taxikardiya xos bo'lib, arterial bosim pasaygan bo'lishi ham, o'rtacha oshgan bo'lishi ham mumkin. Tez-tez va chuqur nafas olinadi. Aksariyat bemorlarda suvsizlanish (degidratasiya) klinik belgilari kuzatiladi. Odatda, jigar faoliyati buziladi, bu aspartataminotransferaza va alaninaminotransferaza (AsAT, ALAT) faolligi oshishi, so'ngra esa sariqlik alomatlarini paydo bo'ladi. (Jigarning metabolitik tousik zararlanishi). Ayrim

bemorlarda gemorragik sindrom (disseminasiyalangan ichki qon tomirida qon quyulishi), shuningdek buyraklar kanalchalari nekrozi natijasida o'tkir buyrak yetishmovchiligi kelib chiqadi. Laboratoriya tekshiruvlarida ko'pincha gipernatriemiya, gipokaliemiya, azotemiya, metabolik asidoz aniqlanadi.

Issiqlik uzatilishining buzulishi ko'pgina dori preparatlari natijasida, ayniqsa, fenotiazin hosilalari (aminazin, propazin, alimemazin va b.), trisiklik antidepressantlar (imizin, amitriptilin, azafen va b.), monoaminoksidad ingibitorlari (nialamid), amfetaminlar (fenamin) kabi bir qator dori preparatlari parenteral yuborilganda tana haroratining ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Xavfli gipertermiya tana harorati ko'tarilishining o'ziga xos turi bo'lib bu oftob urishining nisbatan kam hollarda uchraydigan shakli hisoblanadi. U umumiy anesteziya ta'sirida yoki mushak relaksantlari qo'llanilishi oqibatida paydo bo'ladigan mushak metabolizmining halokatli buzilishi bilan farqlanadi. Bu genetik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan o'ziga xos "farmakogenetik miopatiya"dan iboratdir. Ba'zida, u faqat zardobda kreatininfosfokinaza faolligi oshishi orqali namoyon bo'ladigan subklinik miopatiya bilan bog'liq bo'ladi. Bolalarda xavfli gipertermiya anomal rivojlanish simptomlarida kuzatiladi: kifoz, lordoz, pakanalik, kriptorxizm, o'smay qolgan ostki jag', burmali bo'yin, ptoz, quyi joylashgan quloq chanoqlari. Xavfli gipertermiya quyidagi dorivor preparatlar qo'llanilganidan so'ng paydo bo'lishi mumkin: ditilin, kofein, yurak glikozidlari, umumiy anesteziya uchun preparatlar. Xavfli gipertermiya umumiy anesteziya vaqtida yoki umumiy anesteziya tugagandan so'ng tez orada paydo bo'ladigan og'ir asorat hisoblanadi, gipertermik kriz bilan farqlanadi, ushbu holat vaqtida tana harorati har 5 daqiqada 1°S ga ko'tariladi.

Ba'zan tana harorati 43-44°S gacha ko'tariladi. Taxikardiya, sianoz, mushak rigidligi paydo bo'ladi, agar bemor anesteziyadan so'ng hushiga kelgan bo'lsa, qaytadan hushidan ketish kuzatiladi. Xavfli gipertermiyada o'lim holati 80% ga yetadi. Qon zardobida kreatininfosfokinaza, laktagdehidrogenaza va aspartataminotransferaza faolligining keskin oshishi ushbu asoratning laboratoriya tasdiqi bo'lib xizmat qiladi. Deyarli barcha bemorlarda disseminasiyalangan ichki qon tomirida qon quyulishi belgilari rivojlanadi.

Isitmani qiyosiy tashxislashda me'yoriy fiziologik jarayonlar bilan o'zaro bog'liq tana haroratining ko'tarilishi ham hisobga olinishi kerak. Eng yaqqol ifodalangan tana harorati ko'tarilishi, ayniqsa, issiq ob-havoda og'ir uzoq vaqtli jismoniy mehnat (mashqlar)dan keyin namoyon bo'lishi mumkin. Bunda yuqumli kasalliklarining o'ziga xos klinik belgilari kuzatilmaydi. Tana haroratining ko'tarilishi 38-39°S ga yetishi mumkin. Tana haroratining eng yuqori ko'tarilishi (subfebrilgacha) ko'p oqsilli oziq-ovqat iste'mol qilinganidan so'ng, ayniqsa, bu sirkad ritm bilan mos kelgan holatda paydo bo'lishi mumkin. Tana haroratining qisqa vaqtli ko'tarilishi, muayyan fiziologik jarayonlar bilan bevosita bog'liqlik, issitma kasalliklarining klinik belgilari mavjud emasligi ushbu tana harorati ko'tarilishlarini ham gipertermiya, ham isitmalash oqibati sifatida baxolash (taqqoslash) imkonini beradi.

Agar tashqi muhit sharoitlari, bemorning kasallanishdan oldingi faoliyat xususiyati hisobga olinsa, gipertermiya va isitmani qiyosiy tashxislash ham unchalik

murakkab emas. Ham isitma, ham organizmning juda qizib ketishi tufayli paydo bo'ladigan tana harorati ko'tarilishi holatlarini qiyosiy tashxislash qiyin bo'ladi. Bu yuqumli kasallik bilan og'rigan bemorda, ayniqsa, unda dehidratatsiya rivojlanishida va yuqori havo haroratida (tropik hududlarda) oftob urishi belgilari rivojlanishi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq anamnestik va klinik ma'lumotlarning puxta tahlili ushbu masalani ham hal qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, agar bemorda yuqori tana harorati bo'lsa, birinchi vazifa quyidagi masalani hal qilishdan iborat: bemorning haqiqatan ham isitmasi bormi yoki tana haroratining ko'tarilishi boshqa sabablar bilan o'zaro bog'liqmi?

Bemorning isitmasi borligi aniqlangandan so'ng, isitmaning yuqumli kasalliklar bilan ham, somatik kasalliklar bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi mumkinligi hisobga olingan holda ko'plab ko'rsatkichlar bo'yicha qiyosiy tashxislash o'tkaziladi.

Yuqumli kasalliklar sifatida faqat yuqumli kasalliklar mutaxassislari tomonidan kuzatiladigan, yuqumli kasalliklar bo'lgan bemorlar esa, zarur hollarda, yuqumli kasalliklar stasionariga yotqizib davolanadigan holatlarni ko'rib chiqamiz. Biz "yuqumli kasalliklar" deb belgilagan isitma bilan birga kechadigan kasalliklar orasida ko'p qismi yuqumli agentlar (yiringli jarrohlik kasalliklari, otitlar, zotiljam kasalligi va b.) bilan ham o'zaro bog'liqdir. Biroq ushbu kasalliklar yuqumli kasalliklar mutaxassisi yakolatiga kirmaydi. Quyida isitma bilan birga kechadigan kasalliklarni keltirib o'tamiz.

### **Isitma bilan kechadigan yuqumli kasalliklar**

#### *Bakterial etiologiyali kasalliklar*

Angina. Botulizm. Brusellyoz. Ichburug' (dizenteriya). Bo'g'ma (difteriya). Iersinioz. Kampilobakterioz. Ko'kyo'tal va juft ko'kyo'tal. Legionellez. Leptospiroz. Listerioz. Melioidoz. Meningokokkli infeksiya. A va V paratif yuqumli kasalliklari. Soxta sil kasali. Saramas yuqumli teri kasalligi. Sal'monellez. Manqa. Sepsis. Kuydirgi. Qizilcha kasalligi (skarlatina). Sodoku. Stafilokokkozlar. Qoqshol. Ich terlama. Bitlangan qaytalama terlama. Kanalangan qaytalama terlama. Tulyaremiya. O'lat. Erizipeloid. Esherixiozlar.

#### *Virus etiologiyali kasalliklar*

Adenovirusli kasalliklar. Quturish kasalligi. Virusli gepatitlar. Gemorragik isitmalar. Gerpetik infeksiya. Gripp. Denge isitmasi. Sariq isitma. PC-virusli kasalliklar. Kolorada kana bezgagi. Qizamiq. Qizilcha bolalar kasalligi. Limfositar xoriomeningit. Lassa bezgagi. Marburg bezgagi. Pappatachi bezgagi. Yuqumli mononukleoz. O'rab oluvchi temiratki. Suvchechak. Chinchechak. Paragripp. Epidemik parotit. Poliomielit. Rinovirusli kasallik. Rotavirusli kasallik. Sitomegalovirusli infeksiya. Engerovirusli kasalliklar. Kana ensefaliti. Yaponiya ensefaliti. Oqsim kasalligi. Orttirilgan immun tanqislik sindromi (OITS). Limfadenopatiya sindromi.

#### *Rikketsiozlar*

Bril kasalligi. Ku istmasi. Marsel' istmasi. Susugamushi istmasi. Serqoya tog'lar dog'li istmasi. Vezikulezli rikketsioz. Sibir kana terlamasi. Qaytalama terlama. Burga (kalamush) terlamasi.

### *Protozoy kasalliklar*

Amebiaz. Babezioz. Balantidiaz. Leyshmaniozlar. Bezgak. Kriptosporidoz. Toksoplazmoz. Tripanosomozlar.

### *Mikozlar*

Aktinomikoz. Aspergillez. Gistoplazmoz. Kandidoz. Koksidioidomikoz. Nokardioz.

### *Boshqa kasalliklar*

Mikoplazmoz. Ornitoz. Xlamidiozlar (antroponoz kasalliklar). Gel'mintozlar.

## **Noinfeksiyon etiologiyali kasalliklar**

### *Nevrologik kasalliklar*

Bosh miya absessi. Subdural absess. Epidural absess. Bosh suyagi ichki jarohati. Serebral tromboz.

### *Jarrohlik kasalliklari*

O'pkalar absessi. Jigar absessi. Buyraklar absessi. Appendisit. Teriosti biriktiruvchi to'qimasi yallig'lanishi. Yiringli tireoidit. Ichak invaginasiyasi. Yiringli limfangit. Mediastinit. Teriosti absessi. Piogenli miozit. Pankreatit. Paranebrit. Paraproktit. Peritonit.

### *LOR va stomatologik kasalliklar*

O'rtacha darajali otit. O'tkir darajali sinusit. Stomatit. Paratonzillar absess. Retrofaringeal absess.

### *Terapevtik kasalliklar*

O'tkir bronxit. Zotiljam kasalligi. Miokardit. Plevrit. Perikardit. Endokardit. Xolangit. Xolesistoxolangit. Bod kasalligi (revmatizm). Revmatoid artrit. Tizimli qizil teri sili. Dermatomiozlt. Tugunli periarteriit. O'pka emboliyasi. Pielit. Pielosistit. Pielonefrit. Prostatit. Epididimit.

### *Gematologik kasalliklar*

Transfuzion reaksiya. O'tkir darajali gemoliz. O'roqsimon hujayrali anemiya. Dori preparatlari bilan bog'liq isitma. Zardob kasalligi. Stivens-Djonson sindromi. Anafilaktik purpura. Leykoz. Limfogranulematoz. Agammaglobulinemiya.

### *Boshqa kasalliklar*

Sil kasalligi. Zaxm kasalligi (sifilis). Sarkoidoz. Limfoma. Neyroblastoma. Fosfororganik moddalar bilan zaharlanish. Atropin bilan zaharlanish. Asalari, chayon, o'rgimchaklar chaqishlari, meduzalardan kuyishlar.

Bu yerga alohida nozologik kasalliklar shakllari (gerpangina, faringokon'yunktival istma, epidemik mialgiya, buyrak sindromini o'z ichiga olgan gemorragik istma va b.) kiritilmagan, balki faqat guruh nomlari berilgan. Tana harorati ko'tarilishi bilan birga kechadigan, biroq qiyosiy tashxislashda katta ahamiyatga ega bo'lmagan bir qator kasalliklar ham kiritilmagan.

Isitmalash bilan kechadigan kasalliklarni qiyosiy tashxislashda ularni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholash kerak:

1. Isitma balandligi.
2. Isitma davomiyligi.
3. Harorat egri chizig'i turi.

4. Isitma boshlanishidan o'ziga xos a'zolar shikastlanishlari paydo bo'lgungacha davr davomiyligi.

5. A'zolar shikastlanishlari xususiyati.

6. Epidemiologik shart-sharoitlar.

7. Etiotrop preparatlarining isitmaga ta'siri.

Isitmaning ifodalanish darajasi (balandligi) aksariyat yuqumli kasalliklarni qiyosiy tashxislash uchun unchalik ahamiyatli emas. Bu, odatda, yuqori isitma bilan birga kechadigan kasalliklarning yengil darajali shakllari yaqqol ifodalanmagan tana harorati ko'tarilishiga ega bo'lishi mumkinligi bilan bog'liqdir. Aksincha, subfebril harorat bilan birga kechadigan kasalliklarda, agar asorat qo'shilsa, yuqori isitma paydo bo'lishi mumkin. Biroq, me'yoriy tana haroratida kechadigan kasalliklar guruhini (vabo, teri leyshmaniozi, lyamblioz, shistosomoz va b.) yoki subfebril haroratda kechadigan kasalliklar guruhini (qizilcha, rinovirusli infeksiya va b.) ajratib ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, u yoxud bu kasalliklarda isitmaning tipik, eng ko'p ifodalanishi to'g'risida so'z yuritish mumkin, biroq boshqa variantlar ehtimoli to'g'risida ham unutmash kerak. Quyida turli kasalliklarda isitmaning ifodalanish darajasini keltiramiz.

### **Subfebrilitet**

Adenovirusli kasalliklar, Aktinomikoz, Quturish kasalligi, PC-virusli kasalliklar, Brusellez, Virusli gepatitlar, Gerpetik infeksiya, Kandidozlar, Ko'kyo'tal, Qizilcha, Meningokokkli nazofaringit, Mikoplazmoz, Opistorxoz, Paragripp, Rinovirusli kasallik, Rotavirusli kasallik, Stafilokokkli oziq-ovqatdan zaharlanish, OITS, Limfadenopatiya sindromi, Toksoplazmoz, Trixinellez, Xlamidioz, Vabo, Sitomegalovirusli infeksiya, Erizipeloid

#### *38-40°S harorat kuzatiladigan kasalliklar*

Angina, Aspergillez, Balantidiaz, Brill kasalligi, Mushuk timdalashi kasalligi, Borrelioz, Venesuela otlar ensefaliti, Gerpangina, Gripp, Denge, Difteriya, Iersinioz, Kampilobakterioz, Qaytalama terlama, Kolorada kana bezgagi, Qizamiq, K'yasanur o'rmon kasalligi, Limfositar xoriomeningit, Leptospiroz, Listerioz, G'arbiy Nil bezgagi, Ku istmasi, Omsk gemorragik istmasi, Rift-Valli bezgagi, Melioidoz, Infekcion mononukleoz, Qurshab oluvchi temiratki, Ornigoz, Suvchechak, Maymun chechak, A va V paratif yuqumli kasalliklari, Epidemik parotit, Poliomielit, Soxta sil kasalligi, Vezikulezli rikketsioz, Saramas, Sal'monellez, Kuydirgi, Skarlatina, Stafilokokkli enterit, Ich terlama, Bitlangan qaytalama terlama, Trixinellez, Tulyaremiya (bubon shakli), O'lat (bubon shakli), Enterovirusli meningit, Yaponiya ensefaliti, Rozenberg eritemasi, Tugunli eritema, Ko'p shaklli eritema, Stivens-Djonson sindromi, Esherixiozlar, Oqsim kasalligi.

#### *40°S haroratdan yuqori*

Argentina gemorragik bezgagi, Boliviya gemorragik bezgagi, Brusellez, septik shakli, Qrim gemorragik istmasi, Buyrak sindromi bilan kechadigan gemorragik istma, Sariq istma, Legionellez, Lassa bezgagi, Marburg istmasi, Bezgak, Meningokokkli infeksiya, Manqa, Sepsis, Kuydirgi (o'pka shakli), Tulyaremiya (o'pka shakli), O'lat (o'pka shakli).

Qiyosiy tashxislashda subfebril tana harorati ko'plab noinfekcion kasalliklarda (tireotoksikoz, pielitlar, xolesistoxolangitlar, miokarditlar, miokard infarkti, parchalanuvchi yangi o'smalar va b.) kuzatilishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Isitma davomiyligi qiyosiy tashxislashda uning balandligi nisbatan muhimroq ahamiyatga ega. To'g'ri, erta tashxislash uchun ushbu ko'rsatkich yaroqsiz, chunki bemor kasallikning dastlabki kunlarida tekshirilganida isitmaning qancha vaqt davom etishini aytish qiyin. Biroq davolash jarayonida kuzatilganda, agar isitma uzoq vaqt saqlanib qolsa, tana haroratining bunday uzoq vaqt ko'tarilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kasalliklar tobora kamayib boradi.

Ayrim o'tkir yuqumli kasalliklarda isitma bor-yo'g'i 2-3 kun davom etadi va agar, masalan, yuqori tana harorati 5 kun va undan ko'proq vaqt saqlanib qolsa, ko'plab yuqumli kasalliklarni (gripp va boshqa o'tkir darajali nafas yo'llari virusli kasalliklari, angina, ichburug', kichik kasallik va b.) ishonch bilan istisno qilish mumkin. Biroq uzoqroq isitmalash (masalan, 8-10 kun va hatto 11-20 kun) xos bo'lgan bir qator yuqumli kasalliklarda isitmalash bor-yo'g'i 2-3 kun davom etadigan yengil (abortiv) shakllari kuzatiladi. Bu kasallikning tabiiy kechishi natijasida, shuningdek ko'pincha turli dorivor preparatlar (antibiotiklar, kimyo-terapevtik preparatlar, isitmani pasaytiradigan preparatlar, kortikosteroidlar) ta'sirida isitma pasayishi oqibatida yuz berishi mumkin. Shunday qilib, agar isitma 5 (10-20) kundan ko'proq vaqt davom etsa, bu isitma 5 kungacha davom etadigan kasalliklarni istisno qilish imkonini beradi. Biroq, agar bemorda qisqa vaqtli isitmalash qayd etilsa, bu uzoqroq isitmalash xos bo'lgan kasalliklarni to'liq ishonch bilan istisno qilish imkonini bermaydi. Masalan, ayrim bemorlarda ich terlama 5 kundan kamroq vaqt davom etadigan isitma bilan birga kechishi mumkin, biroq bu kam hollarda yuz beradi va qoidadan ko'ra ko'proq istisno hisoblanadi.

Qiyosiy tashxislashda qisqa vaqtli isitmalash bilan birga kechadigan kasalliklarda yuqori tana harorati davrini jiddiy ravishda uzaytiradigan asoratlar rivojlanishi mumkinligini hisobga olish kerak. Masalan, streptokokkli angina bo'lgan bemorlarda isitma eng ko'pi bilan 5 kun davom etadi, lekin asoratlar (paratonzilillar abscess, miokardit, glomerulonefrit, revmatizm) rivojlanganda isitma ancha uzoqroq davom etishi mumkin. Biroq ushbu holatlarda streptokokkli anginaga qo'shilgan boshqa nozologik shakllar xususida so'z yuritiladi. Tegishli ravishda, isitmaning davomiyligi bo'yicha kasalliklarni faqat shartli tarzda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: 5 kungacha, 6 kundan 10 kungacha, 11 kundan 20 kungacha va 20 kundan ko'proq vaqt davom etadigan isitma. Quyida turli kasalliklarda eng ko'p uchraydigan isitma davomiyligi keltirilgan.

Davomiylilik	Yuqumli kasalliklar	Noinfekcion kasalliklar
5 kungacha	Adenovirusl infeksiyasi Angina Quturish kasalligi Virusli gepatitlar Gerpangina Gerpetik infeksiya	Miokard infarkti O'tkir appendisit O'tkir pankreatit O'tkir xolesistit

	<p>Gripp  Ichburug'  Difteriya  PC-virusli kasalliklar  Ko'kyo'tal  Qizilcha  Pappatachi bezgagi  Meningokokkli nazofaringit  Mikoplazmozli o'tkir nafas yo'llari kasalligi  Qurshab oluvchi temiratki  Suvchechak  Paragripp  Saramas  Rotavirusli infeksiya  Sal'monellez  Kuydirgi, teri shakli  Skarlatina  Stafilokokkli zaharlanish  Erizipeloid  Esherixioz</p>	
6-10 kun	<p>Balantidiaz  Brill kasalligi  Mushuk timdalashi kasalligi  Boliviya gemorragik istmasi  Qaytalama terlama  K'yananur o'rmon kasalligi  Venesuela otlar ensefalomieliti  Qrim gemorragik istmasi  Buyrak sindromi bilan kechadigan gemorragik istma  Gistoplazmoz  Denge isitmasi  Iersinioz  Kaliforniya ensefaliti  Kampilobakterioz  Kolorada kana bezgagi  Qizamiq  Leptospiroz  Limfositari xoriomeningit  G'arbiy Nil bezgagi  Marsel' istmasi  Omsk gemorragik istmasi  Susugamushi istmasi</p>	O'tkir zotiljam kasalligi

	<p>Meningokokkli infeksiya  Mikoplazmoz zotiljam  kasalligi  Infekcion mononukleoz  Maymun chechak  Epidemik parotit  Poliomielit  Soxta sil kasalligi Serqoya  tog'lar dog'li bezgagi</p>	
	<p>Vezikulezli rikketsioz  Stafilokokkli enterit  Qoqshol  Trixinellez  Tulyaremiya, bubon shakli  Xlamidiaz  Sitomegalovirusli infeksiya  O'lat  Enterovirusli ekzantema  Epidemik mialgiya  Yaponiya ensefaliti  Rozenberg yuqumli eritemasi</p>	<p>Bod kasalligi (revmatizm),  zo'rayishi</p>
11-20 kun	<p>Brusellez o'tkir septik shakli  Legionellez  Listeriozli meningit  Ku istmasi  Laos istmasi  Marburg istmasi  Bezgak  Ornitoz  Chinchechak  Pasterellez  A va V paratif yuqumli  kasalliklari  Ich terlama  Qaytalama terlama  Tulyaremiya, o'pka shakli  Tugunli eritema  Ko'p shaklli eritema  Stivens-Djonson sindromi</p>	
20 kundan ko'proq	<p>Aktinomikoz  Amebiyaz  Aspergillez  Surunkali brusellyoz  Surunkali kampilobakterioz  Koksidioidomikoz</p>	<p>Sil kasalligi  Bronxektatik kasallik  Dermatomiozit  Revmatoidli artrit  Tizimli qizil teri sili  Tugunli periarteriit</p>



Visseral leyshmanioz	Davriy kasallik
Surunkali listerioz	Surunkali gepatit
Melioidoz	Agammaglobulinemiya
Nokardioz	Surunkali pankreatit
Opistorxoz	Surunkali xolesistit
Septik pasterellez	Regionar enterit
Manqa	Sarkoidoz
Sepsis	O'smalar, leykoz
OITS	Limfogranulematoz
Qaytalama terlama	
Toksoplazmoz	

Shunday qilib, isitmaning davomiyligi bo'yicha kasalliklarni alohida guruhlarga bo'lib qiyosiy tashxislashni o'tkazishda foydalanish mumkin. Biroq ushbu ko'rsatkich tashxislashni muayyan nozologik shakllargacha yetkazish imkonini bermaydi, balki boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha qiyosiy tashxislashni davom ettirish talab qilinadigan kasalliklar doirasini cheklaydi, xolos.

**Harorat egri chizig'i turlari.** Harorat egri chizig'i xususiyati azaldan yuqumli kasalliklarni tashxislashda qo'llanib kelinadi. Biroq har bir nozologik shakl biron-bir muayyan harorat egri chizig'i turi bilan doimiy o'zaro bog'liqlikka ega emasligini e'tiborga olish kerak. Faqat u yoxud bu kasallik uchun eng xos bo'lgan, turli og'ishlar yuz berishi mumkin bo'lgan harorat egri chizig'i turi xususida so'z yuritish mumkin. Isitma davomiyligini baholashdagi kabi harorat egri chizig'i turidan erta tashxis uchun foydalanib bo'lmaydi. Tana harorati ko'tarilgan dastlabki kunlarda kelgusida harorat egri chizig'i qanday turda bo'lishini oldindan topish mushkul. Shu tufayli harorat egri chizig'i turidan faqat kasallik avjida yoki uning qayta rivojlanish davrida ham qiyosiy tashxislashda foydalanish mumkin. Bir qator kasalliklarda harorat egri chizig'ini biron-bir turga kiritish qiyin bo'ladi, bu, eng avvalo, tana harorati ko'tarilishi bor-yo'g'i 2-3 kun saqlanib qoladigan kasalliklarga tegishlidir. Yuqorida keltirib o'tilgan isitma 5 kungacha davom etadigan taxminan 30 ta nozologik shakl, odatda, tana harorati nisbatan tez ko'tariladigan va pasayadigan bitta to'lqinga ega.

Bunday "qisqa vaqtli isitma"ni harorat egri chizig'ining biron-bir turiga kiritish qiyin. Qolgan kasalliklarni harorat egri chizig'i turlariga muvofiq guruhlarga bo'lib chiqish mumkin, ayrim kasalliklar ikkita guruhga kiritilishi mumkin. Masalan, ich terlama, bezgak, qaytalanish bilan esa – qaytalanuvchan bezgak guruhiga kiritiladi.

Harorat egri chizig'i turlari	Yuqumli kasalliklar
Doimiy istma	Brilla kasalligi
	Gistoplazmoz
	Ku istmasi
	Lessa bezgagi
	Marburg istmasi
	Marsel' istmasi
	Soxta sil kasalligi

	<p>Serqoya tog'lar dog'li bezgagi  Terlamasimon sal'monellez  Ich terlama  A va V paratif yuqumli kasalliklari  Borrelioz  Rozenberg yuqumli eritemasi</p>
Bo'shashtiradigan (remitlaydigan) istma	<p>Argentina gemorragik istmasi  Boliviya gemorragik istmasi  O'tkir septik brusellyoz  Qrim gemorragik istmasi  Buyrak sindromibilan kechadigan gemorragik istma  Denge isitmasi  Sariq istma  Iersinioz  Kaliforniya ensefaliti  Kampilobakterioz  Shimoliy Osiyo terlamasi (rikketsioz)  Kolorada kana bezgagi  Qizamiq  Legionellez  Leptospiroz  Limfositar xoriomeningit  Listerioz  G'arbiy Nil istmasi  Omsk gemorragik istma  Susugamushi isitmasi  Melioidoz, o'pka shakli  Menigokokkli meningit  Mikoplazmozli zotiljam kasalligi  Infeksion mononukleoz  O'rab oluvchi temiratki  Ornitoz  Chinchechak  Maymun chechagi  Kuydirgi  Trixinellez  Xlamidiozlar  O'lat, bubon shakli  Kana ensefaliti  Sen-Lui ensefaliti  Yaponiya ensefaliti  Tugunli eritema  Ko'p shaklli eritema  Oqsim kasalligi</p>

Vahti-vaqti bilan takrorlanib turadigan istma	Uch kunlik bezgak To'rt kunlik bezgak Qaytalama terlama Borrelioz
Qaytalama istma	Sodoku Brusellyoz, o'tkir-septik shakli
To'liqlantiradigan (undulyasiya) istma	Visseral leyshmanioz Brusellyoz, o'tkir-septik shakli
Visseral leyshmanioz Brusellyoz, o'tkir-septik shakli	Generalizasiyalangan gerpetik infeksiya Tarqalgan suvchekchak Kampilobakterioz, septik shakli Legionellez Listerioz, anginoz-septik shakli Melioidoz, septik shakli Sal'monellez, septik shakli Manqa Sepsis Sitomegalovirusli tarqalgan infeksiya Tarqalgan toksoplazmoz
O'tkir darajali to'liqinsimon istma	Asoratli gripp Denge isitmasi Sariq istma Asoratli qizamiq Yuqumli mononukleoz Ornitoz Chinchechak Maymun chechagi Asoratli paragripp Asoratli epidemik parotit A va V paratif kasalliklari Sal'monellez tarqalgan shakli Ich terlama Enterovirusli ekzantema Epidemik mialgiya
Qaytalanuvchan istma	Leptospiroz Brusellyoz, o'tkir-septik shakli Ornitoz A va V paratif kasalliklari Soxta sil kasalligi Sal'monellez tarqalgan shakli Ich terlama

Gektik va noto'g'ri (septik) istmalar bilan birga kechadigan yuqumli kasalliklar bir guruhga birlashtirilgan, chunki bu ikkita tur o'zaro yaqin bog'liqdir. "Septik" nomi yetarlicha asoslangan – isitmaning bunday turi haqiqatan ham sepsisda,

shuningdek septik shakllarda kechadigan kasalliklarda (listeriozning anginoz-septik shaklida, melioidoz, manqa va b.), generalizatsiyalangan virusli (gerpetik, sitomegalovirusli va b.) hamda protozooy kasalliklarida (toksoplazmoz) ko'proq uchraydi.

Boshlang'ich davrda katta sutkalik tebranish darajalariga ega harorat egri chizig'i yetarlicha to'g'ri xususiyatli bo'ladi va gektik istmaga mos keladi. Harorat egri chizig'i ushbu bir maromlilikni (davriylikni) yo'qotgan va bir kun davomida titroqlar bilan birga kechadigan bir necha qisqa vaqtli tana harorati ko'tarilishlari ("shamchalar") kuzatilishi mumkin bo'lgan holatda esa noto'g'ri yoki septik istma xususida so'z yuritiladi.

Ro'yxatga buzilgan istma kiritilmagan, chunki u yuqumli kasalliklarda juda kam hollarda kuzatiladi. Uch kunlik bezgakda tana haroratining ko'tarilishi, odatda, ertalabki soatlarda boshlanadi, kunduzi yuqori raqamlarga yetadi, kechki paytga borib esa tana harorati me'yorgacha pasayadi (xuruj tugaydi). Bunday holatda, buzilgan harorat egri chizig'i xususida so'z yuritish mumkin. Biroq tropikbezgakda xuruj kunning ikkinchi yarmida boshlanadi va kechki tana harorati ertalabki tana haroratidan ancha yuqori bo'ladi. Noto'g'ri istmada ayrim kunlarda kechki tana harorati ertalabki tana haroratidan pastroq bo'lishi, boshqa kunlarda, aksincha, kechki tana harorati yuqoriroq bo'lishi mumkin. Buni ham buzilgan istma sifatida baholab bo'lmaydi. Ko'proq u sil kasalligida qayd etiladi. Boshqa (noinfeksion) kasalliklarda harorat egri chizig'i turlari turlicha bo'lib, odatda, qiyosiy tashxis o'tkazish uchun kam foydalaniladi. Sil kasalligi va biriktiruvchi to'qimalar kasalliklarida harorat egri chizig'i ko'proq doimiy turda bo'ladi, boshqa kasalliklarda esa bo'shashtiradigan (remittlaydigan) istma ustuvor bo'ladi.

Ayrim yuqumli kasalliklarda harorat egri chiziqlari shunchalik o'ziga xos xususiyatli bo'ladiki, qiyosiy tashxislashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Biroq bunday kasalliklar ko'p emas. Ular qatoriga bezgakni kiritish mumkin. Uch kunlik bezgakda to'g'ri isitma xurujlari bir kundan keyin bir xuruj boshlangandan navbatdagi xuruj boshlanishigacha teng 48 soatda boshlanadi. Yassi shaklli bezgakda xurujlar juda o'xshash, biroq ertalab emas, balki kunning ikkinchi yarmida boshlanadi. To'rt kunlik bezgakda xurujdan keyin ikki kunlik apireksiya kuzatiladi, so'ngra esa xuruj takrorlanadi. Tropik bezgak xurujining o'ziga xos xususiyatini faqat uch soatlik termometriyada aniqlash mumkin.

Xuruj boshlanishida titroqni o'z ichiga olgan tana harorati 39-40°S gacha ko'tariladi, so'ngra uning biroz (me'yoriy haroratga yetmaydigan) pasayishi va tana haroratining boshlang'ich darajaga nisbatan yuqoriroq darajagacha yangi ko'tarilishi yuz beradi. Natijada "M" harfini eslatuvchi o'ziga xos harorat egri chizig'i hosil bo'ladi. Uzoq vaqtli kuzatuvda kanalangan qaytalama terlamada yetarlicha spesifik harorat egri chizig'i aniqlanadi. Ayrim kasalliklarda antibiotiklar va boshqa etiotrop preparatlari buyurilishi harorat egri chizig'i turlarini jiddiy ravishda o'zgartirishi mumkin bo'lib, bu ham qiyosiy tashxislash o'tkazishda hisobga olinadi.

**Boshlang'ich davr davomiyligi.** Isitmalarni taqqoslashda boshlang'ich davr deyilganda, biz tana haroratining ko'tarilishi boshlanishidan u yoxud bu kasallik uchun xos bo'lgan a'zolar shikastlanishlari paydo bo'lgungacha vaqtni tushunamiz.

Ushbu davr davomiyligi keng doiralarda o'zgarib turadi. Masalan, qizilcha kasalligi bo'lgan bemorlarda dastlabki 12 soat ichidayoq tipik ekzantema ("skarlatinoz" toshma) paydo bo'lib, u boshqa belgilar (halqum shilliq qavatining yorqin giperemiyasi, tonzillit, taxikardiya va b.) bilan birgalikda qat'iy skarlatina tashxisini qo'yish imkonini beradi. Boshqa holatlarda ushbu davr bir haftagacha va undan ko'proq vaqt davom etadi. Masalan, ich terlama bo'lgan bemorlarda ushbu kasallik uchun xos bo'lgan simptomlar (rozeolez toshma, jigar va qorajigar kattalashishi va b.) kasallikning 7-9-kuniga kelibgina aniqlanishi mumkin. Ayrim yuqumli kasalliklarda esa biron-bir o'ziga xos a'zolar shikastlanishlarini umuman aniqlash imkoni bo'lmaydi. Ushbu kasalliklar adabiyotda turli atamalar bilan belgilanadi: "kichik kasallik", "differensiasiyalanmagan isitma" va b. Ushbu guruhdan ko'proq turli xil kasalliklarning yengil, uncha bilinmaydigan va atipik shakllari joy oladi: ich terlama, Ku istmasi, ornitoz, enterovirusli kasalliklar va b. Tegishli ravishda, biron-bir kasallik uchun xos bo'lgan a'zolar shikastlanishlari mavjud emasligi ushbu nozologik shaklni istisno qilish imkonini bermaydi, ayni paytda har bir yuqumli kasallik uchun xos bo'lgan muddatlarda tipik a'zolar shikastlanishlari paydo bo'lishi ushbu kasallikni qiyosiy tashxislash uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Boshlang'ich davr davomiyligi bo'yicha yuqumli kasalliklarni quyidagi guruhlariga taqsimlash mumkin: tipik a'zolar shikastlanishlari kasallikning 1-2-kuni davomida paydo bo'ladi; o'ziga xos simptomlar kasallikning 3-5-kunida paydo bo'ladi; a'zolar o'zgarishlari kasallikning 6-kunida va undan kechroq davrda rivojlanadi.

1-2 kun	3-5 kun	6 kun va undan ko'proq muddat
Adenovirusli kasalliklar	Amebiyaz	Aktinomikoz
Angina	Argentina gemorragik istmasi	Aspergillez
Gerpangina	Babeziyoz	Brusellyoz
Gerpetik infeksiya	Balantidiyaz	Virusli gepatitlar
Gripp	Quturish kasalligi	Gistoplazmoz
Difteriya	Brilla kasalligi	Kandidoz
Denge	Mushuk timdalashi kasalligi	Ko'kyo'tal Koksidioidoz
Dizenteriya	Boliviya gemorragik istmasi	Leyshmaniozlar
PC-virusli kasalliklar	Burga tepkili terlamasi	Nokardioz
Kampilobakterioz	K'yananur o'rmon kasalligi	Opistorxoz
Qizamiq	Qrim gemorragik istmasi	Melioidoz
Qizilcha	Buyrak sindromini o'z ichiga olgan gemorragik istma	A va V paratif yuqumli kasalliklari
Limfositar xoriomeningit	Sariq istma	Poliomielit
Listerioz	Iersiniyoz	Manqa
Legionellez		Sepsis
Pappatachi bezgagi		Brusellyoz, septik shakli
Omsk gemorragik istma		OITS
Meningokokkli infeksiya		Limfadenopatiya sindromi
Mikoplazmoz		Ich terlama
Infektsion mononukleoz		

Suvchechak	Kaliforniya ensefaliti	Toksoplazmoz
Paragripp	Shimoliy Osiyo	Trixinellez
Epidemik parotit	kanalangan tepkili	
Rinovirusli kasallik	terlamasi	
Saramas	Kolorada kana bezgagi	
Rotavirusli kasallik	Leptospiroz	
Sal'monellez	G'arbiy Nil bezgagi	
Kuydirgi	Ku istmasi	
Skarlatina	Lassa istmasi	
Stafilokokkli oziq-ovqatdan zaharlanish	Marburg istmasi	
Stafilokokkli enterit	Marsel' istmasi	
Qoqshol	Susugamushi bezgagi	
O'lat, bubon shakli	Bezgak	
O'lat, o'pka shakli	Qurshab oluvchi	
Enterovirusli meningit	temiratki	
Epidemik mialgiya	Ornitoz	
Kana ensefaliti	Tabiiy chechak	
Yaponiya ensefaliti	Maymun chechak	
Erizipeloid	Soxta sil kasalligi	
	Serqoya tog'lar dog'li bezgagi	
	Vezikulezli rikketsioz	
	Borrelioz	
	Kanalangan qaytalama terlama	
	Tulyaremiya	
	Yuqumli eritemalar	

Biz kasalliklarning kechishi davomida o'ziga xos a'zolar o'zgarishlari aniqlanmaydigan kasalliklar guruhini ajratib ko'rsatmadik.

Bunday kechishlar variantlari aksariyat yuqumli kasalliklarda (garchi turli takrorlanish tezligida bo'lsada) mavjud bo'lishi mumkin, odatda, bu kasalliklarning yengil, uncha bilinmaydigan va atipik shakllaridan iborat bo'ladi. Bularga o'zgarishlar aniqlanmay qolgan holatlar ham tegishlidir.

**A'zolar shikastlanishlari xususiyati.** Qiyosiy tashxislash uchun faqat a'zolar shikastlanishlari muddatlari emas, balki ko'p jihatdan ularning xususiyati ham ahamiyatlidir. Yuqumli kasalliklarning yengil (uncha bilinmaydigan, atipik) shakllarida ushbu kasalliklar uchun xos bo'lgan a'zolar shikastlanishlari mavjud bo'lmashligi mumkinligini e'tiborga olish kerak (virusli hepatitning sariqsiz shakllari, grippning akataral shakllari va b.). Shu tufayli biron-bir simptomning (masalan, ich terlamada rozeolez toshma) yo'qligi ushbu kasallik tashxisini istisno qilish uchun asos bo'lolmaydi, ayni paytda tegishli muddatlarda u yoxud bu a'zo shikastlanishi mavjudligi tashxis qo'yish uchun muhim ahamiyatga ega.

A'zolar shikastlanishlari orasida yuqumli kasalliklar uchun eng xos bo'lgan turlari alohida qiyosiy tashxislash ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday spetsifik belgilar va sindromlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) ekzantema;
- 2) enantema;
- 3) yuz va bo'yin terisi giperemiyasi;
- 4) gemorragik sindrom;
- 5) yuqori nafas yo'llari shilliq qavatlarini yallig'lanishi;
- 6) zotiljam kasalligi;
- 7) tonzillit;
- 8) diareya;
- 9) jigar va qorajigar kattalashishi;
- 10) limfadenopatiya;
- 11) markaziy nerv tizimi o'zgarishlari (meningitlar va ensefalitlar).

Biz isitma sharoitida u yoxud bu sindrom (simptom) paydo bo'lishi faktining diagnostik ahamiyatiga ko'rib chiqamiz.

*Ekzantema.* Juda ko'plab yuqumli kasalliklarda terida toshmalar (ekzantemalar) paydo bo'lishi kuzatiladi. Ekzantema kuzatilishi mumkin bo'lgan yuqumli kasalliklarga (toshma elementlari xususiyatidan qat'i nazar) va uning paydo bo'lish muddatlariga e'tibor qaratiladi.

Ekzantemalar paydo bo'lishi	Yuqumli kasalliklar
Kasallikning 1-2-kuni	Gerpetik infeksiya Qizilcha kasalligi Meningokoksemiya Suvchechak Soxta sil kasalligi Skarlatina Enterovirusli ekzantema Chamer yuqumli eritemasi Tugunli eritema
Kasallikning 3-5-kuni	Argentina gemorragik bezgagi Boliviya gemorragik bezgagi Brill kasalligi Qrim gemorragik istmasi Buyrak sindromi bilan kechadigan gemorragik istma Denge isitmasi Kvinslend terlamasi Shimoliy Osiyo kanali terlamasi Kolorada bezgagi Qizamiq Lassa istmasi Marburg istmasi Marsel' istmasi

